

ISSN 2181-2764  
2026



# SHARQ FILOLOGIYASI JURNALI



# ВОСТОЧНЫЙ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ



# ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY



# ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



## THE EXPRESSION OF SIMILE IN ARABIC SOURCES

***Nodira N. Sadullayeva***

*Senior Lacture, in Law*

Department of Arabic Studies

*Tashkent State University of Oriental Studies*

[mumtoz1990@bk.ru](mailto:mumtoz1990@bk.ru)

*Tashkent, Uzbekistan*

## ABOUT ARTICLE

**Key words:** simile, Arabic sources, rhetoric, semantics, artistic speech, style, figurative language.

Received: 08.05.26

**Accepted: 09.05.26**

**Published:** 10.05.26

**Abstract:** This article examines the features of the expression of simile in Arabic sources. It discusses the theoretical foundations of simile, its place in classical Arabic rhetoric, and its functional significance in artistic speech. The study also analyzes various types of similes found in Arabic literary sources, focusing on their semantic and stylistic aspects through relevant examples. The research substantiates the role of simile in conveying meaning and its connection with artistic thinking.

## ARAB MANBALARIDA TASHBIH SAN'ATINING IFODALANISHI

***Nodira N.Sadullayeva***

## *Katta o'qituvchi*

*Arabshunoslik oliy maktabi*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*mumtoz1990@bk.ru*

Toshkent, O'zbekiston

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** tashbih, arab manbalari, balogʻat, semantika, badiiy nutq, uslub, badiiy sanʼat.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada arab manbalarida tashbih san'atining ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda tashbihning nazariy asoslari, uning klassik arab balogʻat ilmidagi oʻrni hamda badiiy nutqdagi funksional ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, arab adabiy manbalarida tashbihning turli koʻrinishlari, ularning semantik va uslubiy jihatlarini misollar asosida koʻrib chiqiladi. Tadqiqot natijasida tashbih san'atining ma'no

ifodalashdagi roli va uning badiiy tafakkur bilan bog'liqligi asoslab beriladi.

## ВЫРАЖЕНИЕ СРАВНЕНИЯ В АРАБСКИХ ИСТОЧНИКАХ

**Нодира Н. Садуллаева**

*Старший преподаватель в области права*

*Высшая школа арабистики*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

[mumtoz1990@bk.ru](mailto:mumtoz1990@bk.ru)

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

|                        |                                                                                                           |                   |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Ключевые слова:</b> | сравнение, арабские источники, риторика, семантика, художественная речь, стиль, изобразительные средства. | <b>Аннотация:</b> | В данной статье рассматриваются особенности выражения сравнения в арабских источниках. Освещаются теоретические основы сравнения, его место в классической арабской риторике, а также функциональное значение в художественной речи. Кроме того, анализируются различные виды сравнений, встречающиеся в арабских литературных источниках, их семантические и стилистические аспекты на основе примеров. В результате исследования обосновывается роль сравнения в передаче смысла и его связь с художественным мышлением. |
|------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

**Kirish.** Adabiyot nazariyasining “ilmi bade’” qismiga qarashli badiiy tasvir vositalari shoir yoki adiblarning uslubiy ijodkorliklari orqali yuzaga keladi. Xususan, ilmi bade’ haqida shunday fikrlar bildirilgan:

“Ilmi bade’ – fikrni ravon va nafis ifodalash yo‘l, usullari va vositalari, badiiy san’atlar (vositalar)ning turlari hamda xususiyatlari kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Ilmi bade’ni tashkil etgan she’riy san’atlar, o‘z navbatida, ikki guruhga ajraladi: san’atlarning birinchi guruhi bevosita she’rning mazmuni, ma’nosi bilan bog‘langan bo‘lib, ma’naviy san’atlar (sanoe’i manaviy) deb ataladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Arab balog‘at ilmi doirasida tashbih san’ati qadimdan muhim tadqiqot obyektlaridan biri sifatida o‘rganib kelinadi. Klassik arab tilshunosligida tashbih masalasi, avvalo, balog‘at ilmining asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lgan bayon ilmi tarkibida keng yoritilgan. Bu borada Abdulqohir Jurjoniyniing “Asror al-balog‘a” va “Daloyil al-i’joz” asarlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda tashbihning nazariy asoslari, uning tarkibiy qismlari hamda ma’no ifodalashdagi o‘rni chuqur tahlil qilingan.



Shuningdek, Sakkokiy, Qazviniy kabi olimlarning balogʻatga oid asarlarida ham tashbihning turli koʻrinishlari, ularning uslubiy va semantik xususiyatlari tizimli ravishda bayon etilgan. Ushbu manbalarda tashbihning ochiq (sarih), yashirin (makniy), mufasssal va mujmal shakllari ajratilib, ularning badiiy nutqdagi vazifalari aniqlashtiriladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa tashbih sanʼati nafaqat nazariy, balki funksional-semantik jihatdan ham oʻrganilmoqda. Arab va boshqa tillardagi qiyosiy tadqiqotlar tashbihning lingvopoetik imkoniyatlarini kengroq yoritishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, oʻzbek tilshunosligida ham arab balogʻatiga oid qarashlar asosida tashbihning badiiy matndagi roli, uning maʼno qatlamlari va ifoda vositasi sifatidagi xususiyatlari tahlil qilinmoqda.

Biroq mavjud adabiyotlarda arab manbalarida tashbih sanʼatining ifodalanishi kompleks, tizimli va zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida yetarli darajada umumlashtirilmaganligi ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur tadqiqotda arab manbalarida tashbih sanʼatining ifodalanish xususiyatlarini oʻrganishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, tavsifiy (deskriptiv) metod asosida arab balogʻatiga oid klassik va zamonaviy manbalarda tashbihning nazariy asoslari izchil bayon qilindi.

Shuningdek, qiyosiy-tahliliy metod yordamida turli mualliflar tomonidan berilgan tashbih taʼriflari va tasniflari oʻzaro solishtirildi hamda ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Semantik tahlil metodi orqali tashbih tarkibidagi unsurlar (mushabbah, mushabbah bih, vajh ash-shabah, adat at-tashbih)ning maʼno ifodalashdagi oʻrni oʻrganildi.

Natijalar. “Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, sheʼriy sanʼatlar shoir badiiy salohiyatini koʻz-koʻz qilish, uning xilma-xil sanʼatlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining koʻlami, yuksak ijtimoiy-axloqiy gʻoyalarni jilolantirish sanʼatkorligi ifodasi boʻlib kelgan” (Isʼhoqov Yo. Soʻz sanʼati soʻzligi, 2006. b. 7).

Tashbih (oʻxshatish) maʼnaviy sanʼatlar ichida eng faollaridan biri boʻlib, uning mohiyati soʻzlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa, hodisa yoki xususiyatni ular oʻrtasida mavjud boʻlgan biror oʻxshashlik, umumiylik (sifat, belgi yoki funksiya) nuqtai nazaridan qiyoslashdan iboratdir. Oʻxshatishdan maqsad esa tasvir obekti boʻlgan predmet yoki hodisa yoxud ularning biror xususiyatini yorqinroq tasvirlash va chuqurroq ochib berishdir.

Tashbih sanʼatkorga oʻz taassurotlarini, fikr va kechinmalarini obrazli ravishda yorqin bayon qilish uchun cheksiz imkoniyatlar beradi. Binobarin, yozuvchining hayotga kishilar va voqealarga munosabati, ular orasidagi aloqa va nozik bogʻlanishlarni sezib olish quvvati, uning oʻziga xos mushohada usuli va ijodiy originalligi uning tashbihlarida ham yaqqol koʻrinadi.

She'riy san'atlarni, umuman, poetik hodisalarni umumlashtirish, ularning mohiyatini ko'rsatishga intilish juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Ularning qadimiy namunalarini G'arbda (Aristotel, Platon...) ham Sharqda kuzatishimiz mumkin. Sharda bu fan Hindiston, Xitoy singari mamlakatlarda, shuningdek arab o'lkalarida ilk rivojlanish bosqichini bosib o'tgan. Biz arab mamlakatlarida, Qur'onga bog'liq holda poetikaga doir asarlarning kengayishi, mukammallashishini kuzatamiz.

Yettinchi hijriy asrning avvalida yashab ijod qilgan olim, Abu Yaa'qub ash-Shukoliy Balog'at ilmida katta rivojlanishga qo'l urdi. Uning davriga kelib balog'at ilmi uch katta qismga bo'lindi.

Ushbu ilmlar bilan vaziyat taqazo etuvchi arab lafzlarining holatlari tushuniladi (عبد القدوس).  
(ابو صالح، احمد توفيق كليب، ١٤٠٢. ص. ٧١).

1. Maoniy
2. Badi'
3. Bayon

Ilmu-l-maoniy – kalomdagi vaziyat taqazo qiluvchi lafzlarni o'rganuvchi fandır.

Ilmu-l-badi' – kalomni ziynatlaydigan ziyodalar va vajhlarni o'rganuvchi fandır.

Ilmu-l-bayon – kalomdagi maqsad qilingan ma'noni turli yo'llar bilan o'rganadigan usul va qoidalar majmu'yi bo'lib, kinoya, tashbih va majoz sig'alari orqali maqsad qilingan ma'noni qanday bilish kerak ekanligini o'rgatadigan fandır. Matndagi ayrim tavsiflar bilan tanishaylik:

Tashbih – narsa va hodisalarni adotlar vositasida birini ikkinchisidan sifat, miqdor va boshqa jihatlarda qiyoslab, ma'naviy va lafziy holatni o'zida mujassam etadi.

Majoz – asliy ma'nodan boshqa ma'noda iste'mol qilinib, asliy ma'noni inkor qilish bilan birga, asl va g'ayri asl ma'nolarni birini ikkinchisiga bog'lovchi vosita vazifasini ado etadi.

Kinoya – asl ma'nodan ko'zda tutilgan narsa, uning vositasida amalga oshirilishini hoxlanadi.

Tashbihning ta'rifi va rukunlari

1. Tashbih ta'rifi. Tashbihning ma'nolari ko'p bo'lib, ularning ba'zilarini keltirib o'tamiz:

Mashhur olim Sakkokiy (1160-1229) tashbih san'ati borasida shunday degan: tashbih ma'noda bir ishni ikkinchi bir ishga qiyoslashga dalolat qiladi .

Tashbih, sifat va boshqa belgilarda ishtirok etuvchi ikki ismning o'rtasiga kirib, ikkisini bir holatga olib keladi .

Rummoniy dedi: tashbih ikki berkituvchi narsaning tuguni bo'lib, u ikkisi boshqa birovning berkingan ashyosini to'sadi .

Abu Hilol Askariy (395 h) dedi: Tashbih ikki vasf qilinuvchining biriga vasf bo'ldi va vasf qilinuvchi ism esa, boshqasining o'rnini tashbih adotlari orqali egallaydi (أحمد الهاشمي. مراجع السابق. ص. ٣٢٣).

“Javohiru-l-balog'a” kitobining muallifi dedi: tashbihning rukunlari to'rttadir.

1. Mushabbah
2. Mushabbahu bihi
3. Vajhu-t-tashbih
4. Adotu-t-tashbih

Mushabbah: u shunday ishki, undan boshqa ish bilan maqsadga erishish iroda qilinadi.

Mushabbahu bihi: u shunday ishki, mushabbah u bilan maqsadga yetadi.

Vajh ut-tashbih: u ikki taraf o'rtasidagi mushtarak vasfdir.

Adot ut-tashbih: u tashbihga dalolat qiluvchi lafz bo'lib, mushabbahni mushabbahun bih bilan bog'laydi. U gohida zikr qilinib, gohida qilinmasligi mumkin.

Misol: kechaning egasi garchi ajamning eng qorasi bo'lsa ham, husnda subh kabidir.

| Vajh<br>at-tashbih | Al-adot | Al-mushabbah bih | Al-mushabbah    |
|--------------------|---------|------------------|-----------------|
| Husn               | kabi    | subh             | kechaning egasi |

Ko'pchilikning fikricha tashbih balog'at xazinasidan o'rin olgan bo'lib, asliy va g'ayri asliyga bo'linadi.

Asliy tashbihning o'zi uch qismdir.

1. Ikki taraf e'tiboriga asoslangan holda.
2. Vajh sababiga asoslanib.
3. Adod (o'xshatish vositalar)ga ko'ra.

G'ayri asliy tashbih ikki nav'dir.

1. Maqlub
2. Zimniy

Asliy tashbih. 1. Ikki taraf e'tiboriga asoslangan holdagi tashbih al-mushabbah va Mushabbahun bihga tayanadi. Bu tashbih hissiy bo'lib, besh his qiluvchi a'zolar orqali ro'yobga chiqadi. Ular: ko'z, quloq, burun, qo'l va og'iz bilish a'zosidir. Misol: sen ziyoda Quyosh kabisan.

2. Aqliy tashbih, unga aql orqali yetiladi. Misol: haqdan bo'lgan zalolat ko'r kabidir.

| Vajh<br>at-tashbih | Al-adot | Al-mushabbah<br>bih | Al-mushabbah |        |
|--------------------|---------|---------------------|--------------|--------|
| ziyoda             | kabi    | quyosh              | sen          | hissiy |
| haqdan             | kabi    | ko'r                | zalolat      | aqliy  |

Gohida, mushabbah hissiy bushabbahun bih esa aqliy bo'lishi mumkin. Misol: yomonlik tabibi o'lim kabidir.

| <b>Vajh<br/>at-tashbih</b> | <b>Al-adot</b> | <b>Al-mushabbah<br/>Bih</b> | <b>Al-mushabbah</b> |
|----------------------------|----------------|-----------------------------|---------------------|
| Yomonlik                   | kabi           | o'lim                       | tabib               |

Bazan, mushabbah aqliy, mushabbahun bih hissiy bo'ladi. Misol: ilm nur kabidir.

| <b>Vajh<br/>at-tashbih</b> | <b>Al-adot</b> | <b>Al-mushabbah<br/>bih</b> | <b>Al-mushabbah</b> |
|----------------------------|----------------|-----------------------------|---------------------|
|                            | kabi           | nur                         | ilm                 |

Vajhi tashbih e'tiboriga binoan bo'lgan tashbih. Vajhi tashbih xos vasf bo'lib, ikki taraf ishtiroqini ko'zda tutadi. Ishtirok mukarramlilikda bo'lishi mumkin. Masan: do'st karamda qozi misolidir.

| <b>Vajh<br/>at-tashbih</b> | <b>Al-adot</b> | <b>Al-mushabbah<br/>bih</b> | <b>Al-mushabbah</b> |
|----------------------------|----------------|-----------------------------|---------------------|
| Karam                      | misoli         | qozi                        | do'st               |

Vajhi tashbih e'tiboriga ko'ra tashbih ikki qismga bo'linadi:

1. Tashbihi tamsil
2. Tashbihi g'ayri tamsil

Tashbihi tamsil tarkibida biri ikkinchisiga yaqin bo'lgan ikki vajh bo'lib, birqancha adadda o'zgaradi. U hissiy va aqliy bo'lishi mumkin. Misol: yigit kishi bo'lsa ham o't va uning shulasidek bo'lib, bir oy tamoiy yonib, keyin o'chadi.

| <b>Vajh<br/>at-tashbih</b>            | <b>Al-adot</b> | <b>Al-mushabbah<br/>bih</b> | <b>Al-mushabbah</b> |
|---------------------------------------|----------------|-----------------------------|---------------------|
| bir oy tamoiy yonib,<br>keyin o'chadi | dek            | o't va uning<br>shu'las     | yigit kishi         |

Tashbihi g'ayri tamsilda biri ikkinchisiga o'xshash vajh bo'lmaydi va bir qancha adadda tuslanmaydi. Misol: sening dalil, isbotga muhtoj emasliging nuqsonsiz balog'atli qalam urchuq yanglig' ekanligidandir.

| <b>Vajh<br/>at-tashbih</b>       | <b>Al-adot</b> | <b>Al-mushabbah<br/>bih</b> | <b>Al-mushabbah</b>           |
|----------------------------------|----------------|-----------------------------|-------------------------------|
| dalil, isbotga muhtoj<br>emaslik | yanglig'       | urchuq                      | nuqsonsiz<br>balog'atli qalam |

Xulosa o'rnida aytish joizki, ushbu manbalar tashbih va boshqa she'riy san'atlarning juda qadimiy ildizlarga ega bo'lib, ularning nutqni boyitishda, ayniqsa badiiy asar mazmunini ko'rsatib berish va uning ta'sirchanligini oshirishda juda katta rol o'ynaganini ko'rsatib turibdi.

Shubhasizki, ulardan keyinchalik forsiy va turkiy tilda ijod qilgan qalam ahli ham unumli foydalangan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, badi' ilmi arab balog'at ilmining muhim bo'limlaridan Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, arab manbalarida tashbih san'ati nafaqat badiiy obraz yaratishda, balki nutqning ma'nosini aniqlashtirish va ifodaviyligini oshirishda ham muhim vosita sifatida ishlatilgan. Tashbihning mohiyati, uning rukunlari (al-mushabbah, al-mushabbahu bihi, vajh ut-tashbih, adotu-t-tashbih) va turlari (asliy va g'ayri-asliy, hissiy va aqliy) orqali ijodkor o'z tasavvurlarini, fikr va kechinmalarini aniq va obrazli tarzda yetkazgan. Shu bilan birga, arab balog'at ilmi, xususan ilm al-bayan, ilm al-badi' va ilm al-maoniy asosida tashbih va boshqa she'riy san'atlarni tizimli o'rganish imkonini bergan.

Tadqiqotdan ko'rinib turibdiki, tashbihning qadimiy ildizlari nafaqat arab adabiyotida, balki keyinchalik forsiy va turkiy tillarda ijod qilgan adiblar tomonidan ham faol ishlatilgan. Bu esa tashbih san'atining universal badiiy qadriyat va estetik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Umuman olganda, arab manbalaridagi tashbih san'ati nutqni boyitish, ma'nolarni aniqlashtirish va o'quvchida kuchli estetik taassurot qoldirishda muhim vosita sifatida shakllangan va rivojlangan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: Zarqalam, 2006.
2. Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? – Toshkent: Sharq, 2011.
3. أحمد الهاشمي. مراجع السابق. – مصر، ١٧٨٧. – ص. ٣٢٣.
4. عبد الرحمان بن ابو بكر السيوطي. الإتقان في علوم القرآن. – مصر، ١٩٧٤. – ص. ٩٠.
5. عبد القدوس ابو صالح، احمد توفيق كليب. كتاب البلاغة علم المعاني. – مصر، ١٤٠٢. – ص. ٧١.
6. المعجم المفصل في علوم البلاغة البديع، البيان و المعاني. انعام فوال عكاوي. – مصر، ٢٠٠٦. – ص.

٣٢٣.